

**IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALAR BILAN ISHLASHDA OTA-ONA
VA MAK TABGACHA TA'LIM TASHKILOTI HAMKORLIGI**

**COLLABORATION BETWEEN PARENTS AND PRESCHOOLS IN WORKING
WITH CHILDREN WITH DISABILITIES**

Rahimberdiyeva Yulduzzon

Toshkent davlat pedagogika universiteti

Ta'lim muassasalari boshqaruvi yo'nalishi 1-kurs magstri

Kalit so'zlar: imkoniyati cheklangan bolalar, xulq-atvor, maktabgacha talim tashkiloti, ota-ona hamkorligi.

Key words: disabilities, behavior, preschool educational organization, parent partnership.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlashda ota-ona va maktabgacha ta'lism tashkiloti hamkorlik yo'li bilan bajargan ishlar yoritilgan. Imkoniyati cheklangan bolalar bilan shug'ullanishning turli usullari, mashg'ulotlar, hamkorlik ishlari haqidagi ma'lumotlar tahlili keltiriladi. Bu maqola orqali imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlashda ota-ona va maktabgacha ta'lism tashkiloti hamkorlikgini kelgusida rivojlantrish uchun qanday metodlarni o'zlashtirishi lozimligi haqida ham bir qancha yo'llanmalar keltirilgan. Bu maqola orqali O'zbekistonda qilinayotgan ishlar, yangi metodlar va texnologiyalar o'r ganib chiqilgan. Maqolada hamkorlik jarayoni haqida ham alohida to'xtalib o'tilgan

INTRODUCTION

KIRISH: Biz bilamizki bugungi kunda ta'lism olish huquqiga hamma xaqli. Bu ta'lism olish huquqidan imkoniyati cheklangan bolalar ham qolib ketmagan. Bizning oramizda hayot kechirib turgan zaminimizda shunday insonlar borki, ularning jismoniy imkoniyati cheklangan, lekin ma'naviyati yuksak, ruhi esa juda kuchli va matonatli. Afsuski, nogironligi bo'lgan shaxslar ko'pincha ishlash, ta'lism darajasini oshirish va jamiyat hayotida to'laqonli ishtirok etish imkoniyatidan mahrum bo'ladilar. Hozirgi paytda ularning soni jahon miqyosida juda ko'p. Aksariyat hollarda ular kamsitish va "qo'li kaltalik"dan aziyat chekadilar. Albatta, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash borasidagi eng katta mas'uliyatli ish davlat zimmasiga yuklatiladi.

Inklyuziv ta'larning afzalliklari. Har bir inson inklyuziv amaliyotdan foyda ko'radi. Inklyuziv ta'lism orqali bola mustaqilroq va o'ziga ishonadigan bo'lib yetishadi o'z ichidagi qo'rquvlari kamayadi va tegishli ijtimoiy ko'nikmalarni o'r ganadilar. Shuningdek, ular g'amxo'rlik, va rahm-shafqatni ifoda etish qobiliyatidan xabardor bo'lishadi. Bu ta'lism muhitidan faqatgina bola emas bolaning ham ota-onalari foyda ko'rishadi. Chunki bunungi kunda imkoniyati cheklangan bolasi bor ota-onaning

birinchi tashvishlantirgan narsasi bolasining tengdoshlari qatoridan ajralib qolayotganligi va ta’lim olishin qiyin bo‘layotganligidir. Hozirgi kunda ota-onas bolasi ta’lim olayotgan tashkilotga borib bemalol bolasining ta’lim olayotgan muhitini ko‘rishi va yordamlashishi mumkin. Ota-onalar va boshqa oila a’zolari bilan qo‘shilishdan foyda ko‘rishadi, shuningdek ular o‘zlari va farzandlari uchun turli xil ijtimoiy vaziyatlarni kengaytiradilar. Ular o‘z jamoalaridagi katta oilalar guruhi bilan aloqani boshdan kechiradilar, qo‘rquvni kamaytiradi.

Inklyuziv ta’lim vazifalari: - Ta’lim muassasasida ta’limda alohida ehtiyoji bo‘lgan imkoniyati cheklangan bolalar va o‘smirlarning ta’lim olishlari uchun zarur psixologo – pedagogik, korreksion sharoitlar yaratish, ularning imkoniyatiga yo‘naltirilgan umumta’lim dasturlari va korreksion ishlarni amalga oshirish orqali ruhiy rivojlanishini, ijtimoiy moslashtirishni amalga oshirish; - Maxsus ta’lim muassasasi o‘quvchilari ta’lim tashkilotlari bilan uyg’unlashtirgan holda faoliyat olib borish yo‘li bilan o‘quvchilarning ta’limdagi tenglik huquqini kafolatlash; - Jamiyatning va oilaning faol ishtirokida nogiron va sog’lom bolalar o‘rtasidagi to‘siqlarni bartaraf etish, bolaning ehtiyojlarini qondirish, ijtimoiy hayotga erta moslashtirish; Imkoniyati cheklangan bolalar va o‘smirlarni oilalardan ajralmagan holda yashash huquqini ro‘yobga chiqarish; - Jamiyatda imkoniyati cheklangan bolalar va o‘smirlarga muqobil munosabatni shakllantirishdir.

Inklyuziv ta’limga kiritishning asosiy tamoyillari: 1). Inklyuziv ta’limning e’tirof etilishi. 2). Inklyuziv ta’limning barcha uchun ochiq bo‘lishi tamoyili. 3). Bog’lanishning mavjud bo‘lishi tamoyili. 4). Markazlashtirilmagan bo‘lish tamoyili. 5). Inklyuziv ta’limda kompleks yondashish tamoyili. 6). Inklyuziv ta’limda moslashuvchanlik tamoyili. 7). Malakaviylik tamoyili.¹

ADABIYOTLAR TAHLLILI

Nuqsonli bola oilasining alohida muammolari Bogdanova, T.A. , Shoumarov G.B., Dobrovolskaya, A.I., Zaxarova, I.Y. Levchenko, Mamaychuk I.I., Martinova V.L., Pyatakova G.V., Mastyukova YE.M., Mishina G.A., Raku A.I., Semago M.M., Skvorsova I.A., Osipenko T.N., Spivakovskaya A.S., N.B. Shabalina, A.R. Sharipova, N.N. Shkolnikova, V.V., Yurtaykina boshqalar tadqiqotlarida yoritilgan. Bizning respublikamizda Nurmuxamedova L.SH. —Oilada nogiron farzandni tarbiyalashning pedagogik xususiyatlari mavzusida tadqiqot ishini olib borgan bo‘lib, uning tadqiqoti ota-onas va nogiron farzandni tarbiyalashning pedagogik holatlarini o‘rganish va pedagogik tavsiyalar ishlab chiqishga bag‘ishlangan.

METOD

“SWOT-tahlil” metodi.

¹ <http://ilmiy.bmti.uz/blib/files/116/Maxsus%20pedagogika.pdf>

Metodning maqsadi quyidagilardan iborat : mavjud bo‘lgan nazariy va amaliy bilim, tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash natijasida mazkur muammoni yechimini topishga mo‘jjallangan. Hamda bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil hamda tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga qaratilgan. „Imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlashda ota-onva maktabgacha ta’lim tashkiloti hamkorligini SWOT tahlilini quyidagi jadvalda ko‘rishimiz mumkin.

S	Imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlashda ota-onva maktabgacha ta’lim tashkiloti hamkorligini kuchli tomonlari.	<ol style="list-style-type: none"> 1. Ta’lim olishi osonlashadi. 2. Tarbiyachi va bolalar o‘rtasidagi muloqat yaxshilanishi. 3. Teng huquqlilik hissini tuyadi. 4. Bolalar ijtimoylashadi.
W	Imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlashda ota-onva maktabgacha ta’lim tashkiloti hamkorligi zaif tomonlari.	<ol style="list-style-type: none"> 1. Bolalarning maktabgacha ta’lim tashkilotida o‘rtoqlari tomonidan kamsitilishi mumkin. 2. Tarbiyachi imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlashda yetarli pedagogik mahoratga ega bola olmasligi.
O	Hamkorlikning imkoniyatlari.	<ol style="list-style-type: none"> 1. Axloqiy fazilatlar shakllanishi 2. Ta’lim oladi va boshqa bolalar bilan teng huquqli bo‘ladi 3. Ijtimiy munosabatlar yaxshilanishida
T	Hamkorlikning to‘siqlari.	Imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlashda imkoniyati cheklangan bolaga nisbatan ko‘p e’tibor berilishi oqibatida sog’lom bolalar chetda qolishi mumkin. Shuning uchun hamkorlik tartibini to‘g’ri yo‘lga qo‘yish kerak.

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinib turibdiki imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlashda ota-onva maktabgacha ta’lim tashkiloti hamkorlik faoliyatda hamda bolalarning talimiyl faoliyatida hamda bolalarning ta’limiy jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlashda bola ijobjiy xususiyatlarga ega bolishi va hamkorlikni to‘g’ri yo‘lga qo‘yish ota-onva tarbiyachining pedagogik mahoratiga bog’liq.

Imkoniyati cheklangan-bu so‘zga to‘xtaladigan bo‘lsak o‘z nomiga monand shaxsning ma’lum bir ishni bajarishga imkoniyati yo‘q osha ishni bajarishga ojiz. Bugungi kunda bizning yurtimizda ham bunday shaxslar soni ko‘pgina. Bizning

yurtimizda ham imkoniyati cheklangan shaxslarga yurtboshimiz tomonidan juda ko‘p shart-sharoitlar yaratilmoqda va ularning sog’lom shaxslardan ajralmasliklari uchun qo‘llab-quvvatlamоqda. Imkoniyati cheklangan bu har xil kasallik turiga bo‘linadi.

Bular;

1. Eshitish(kech-kar,eshitish zaif,kar).
- 2.Ko‘rish (ko‘rish qobiliyati zaif ko‘r).
3. Nutq(turli darajada) aql.
- 4.Kechikkan psixoverbal rivojlanish(ZPR).
- 5.Mushak-sklet tizimi.

6. Hissiy-irodaviy soha turlariga bo‘linadi. Bizning tanlagan mavzuyimiz imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlashda ota-onva maktabgacha ta’lim tashkiloti hamkorligi. Biz bu mavzuda imkoniyati cheklangan bolaga ota-onva maktabgacha ta’lim tashkilotidagi hamkorlik qay darajada muhim va bolaning hayotida qanday imkoniyatlarni yaratadi shular haqida to‘xtalib o‘tamiz.

Eshitishda nuqsoni bor bolalar ko ‘pincha nutq faoliyatida muammolari borligi bilan tengdoshlari qatoridan ajralib turadi. Chunki bolaning nutqi eshitish orqali rivojlanadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlariga borgan eshitishida nuqsoni bor bola guruhda ko‘p tendoshlari tarafidan kamsitilishi orqali ulardan ta’limiy faoliyatlarda orqada qoladi va bolaning o‘zida qo‘rquv paydo bo‘lib qoladi. Bu vaziyatda guruh tarbiyachi pedagogi ham psixologik mahoratga ega bo‘lishi kerak.

RESULT

Bola uchun ota-onva hamkorligi juda ham muhim ayniqsa bu imkoniyati cheklangan bo‘lsa. Bolaning tarbiylanishida va sog’lom o‘sib ulg’ayishida oilaning o‘rni beqiyosdir.

So‘nggi yillarda jamiyatning nogiron kishiga ya’ni imkoniyati cheklangan shaxsga munosabati tubdan o‘zgara boshladi, uni jamiyatning teng huquqli va munosib a’zosi deb tan olindi lekin baribir ham bugungi kunda imkoniyati cheklangan shaxslarning o‘zining qo‘shimcha muammolari bor. Odatta, oilada imkoniyati cheklangan bola tug’ilishi bilan ota-onva tashvishga tushadi va moddiy, maishiy, moliyaviy muammolari ko‘payadi. Shu vaziyatda ko‘pincha bola tengdoshlariga qo‘shilmaslik oqibatida o‘z qobig’iga o‘ralib qolib ketadi. Masalan bir oilada imkoniyati cheklangan bola tug’ilsa u kamdan kam holatlarda bolani ota-onva qo‘rmasdan ta’lim tashkilotlariga qo‘sha oladi. Keyingi tarafini ko‘radigan bo‘lsak ota-onva ko‘pincha bolasi imkoniyati cheklangan bo‘lganligidan uyaladi bunday vaziyatlarda ko‘pincha Bolani ota-onasi o‘zim ta’lim va tarbiya beraman deb bolasini ta’lim tashkilotlariga qo‘shmaydi va odamlarni ko‘ziga ko‘rsatmaydi bola o‘zi bilan o‘zi qolib ketish natijasida sezilarli darajada yomon oqibatlar kuzatiladi. Biz imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishslashda ota-onva hamkorligi qanchalik muhimligini ko‘rib chiqamiz.

Maktabgacha ta’lim tashkilotiga imkoniyati cheklangan bola keldi, uni guruh muhitiga moslashtirish tarbiyachi uchun juda muhim va murakkab ish bunda tarbiyachi albatta psixolog bilan hamkorlikda bolaning aynan nimadan bola qiyonaladi va u nimalarga qiziqadi shularni kuzatish orqali bilib olishi kerak. Bunda ota-onal hamkorligi ham tarbiyachi va psixolog hamkorligiga birlashgan holatda bo‘ladi. Tarbiyachi ota-onalar bilan tez-tez uchrashuvlar uyushtirib munozara, test, so‘rovnomalari o‘tkazib turilsa imkoniyati cheklangan bolalar bilan ota-onalar ishtirokida olib boriladigan har bir mashg’ulot bola uchun ahamiyatli hisoblanadi bu ota-onal uchun ham farzandining nimaga qodir ekanini anglashiga yaqindan yordam beradi va bolalarni tengdoshlari qatoridan ajrab qolmayotganligini, bolasining ta’lim olayotganini bolasining o‘zi ko‘rmagan xususiyatlarini anglashiga ota-onal bola uchun hamkorlik qay darajada ekanligini his qiladi va farzandi oldida uning kelajagiga zamin yaratib berish mas’uliyati yanada oshadi.

Disscussion.

Demak bir oilada bitta imkoniyati cheklangan bola bor ota-onal bu vaziyatda bolasini tengdoshlari qatoriga qo‘rqmasdan qo‘shishi va uning bilim olishi uchun yaratilgan yetarlicha shart-sharoitlardan foydalanishi imkoniyati cheklangan bolasining kelajagi uchun zamin yaratib berishi kerak.

Xulosa qilib aytganda imkoniyati cheklangan maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim va tarbiya berishda ota-onal va maktabgacha ta’lim tashkiloti hamkorligi yaxshi samara beradi. Hamkorlikni amaliyatga joriy etish ustida olib borilgan tajribalardan shu narsa o‘z isbotini topdiki har qanday imkoniyati cheklangan bolalarni nuqsonini ilk yoshdan o‘z vaqtida aniqlab mutaxassislarga murojat qilib bolaning aqliy va jismoniy tarafdan sog’lom bo‘lib yetishishida hamkorlik olib borilsa albatta ko‘zlangan maqsadga erishish mumkin. Imkoniyati cheklangan bolalar uchun hamkorlikni to‘g’ri yo‘lga qo‘yishda ota-onal va maktabgacha ta’lim tashkiloti birdek hamkorligi muhim ahamiyat kasb etishi va uning rivojlanishi, kelajagini belgilab berishi uchun turtki bo‘ladi shuning uchun biz vaziyatdan kelib chiqib imkoniyati cheklangan bolalarni qo‘llab-quvvatlashimiz ularga yaratilib berililgan shart-sharoitlardan foydalanishi uchun o‘z hissamizni qo‘shishimiz va inklyuziv ta’lim muhitini yaratishimiz kerak. Imkoniyati cheklangan bolalar bilan Maktabgacha ta’lim tashkiloti hamkorlik qilishda inklyuziv ta’lim muhitini guruhlarda yaratishi juda katta foya beradi. Imkoniyati cheklangan bola uchun inklyuziv ta’lim yana nimalar beradi?

Bolalarda atrofdagi imkoniyati cheklangan bolalarga pozitiv munosabat va hurmat tarbiyalanadi. Yordamga muhtoj insonlarga e’tiborsizlik qilmaydigan shaxsga aylanadilar boshqalarining dardini o‘ziniki singari qabul qiladilar. O‘rgangan natijalarim shuni ko‘rsatadiki imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishslashda ota-onal

hamkorligi, inklyuziv ta’lim juda ham muhim. Biz bu bilan imkoniyati cheklangan bolalarga doimo qo‘limizdan kelgancha yordam berishimiz O‘zbekistonda bo‘layotgan har bir imkoniyatdan unumli foydalanishimiz ularning ta’lim va tarbiya olishiga hamkorlik qilishimiz kerak.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. M.U. Xamidova. Maxsus pedagogika. – T.: «Fan va texnologiya», 2018 6-bet.
2. Nurmuxamedova L.SH. Oilada nogiron farzandni tarbiyalashning pedagogik xususiyatlari. Ped.fan.nomz.dis....avtoref. – T.:Nizomiy nomidagi TDPU.2005. - 26 bet.
3. -yaratish-boyicha-ishlar-jadallashtirilishi-lozim-2
<http://ilmiy.bmti.uz/blib/files/116/Maxsus%20pedagogika.pdf>
4. <http://www.ombudsman.uz/oz/news/2021/06/12/nogironligi-bolgan-shaxslarga-teng-imkoniyatlar>
5. <http://www.ombudsman.uz/oz/news/2021/06/12/nogironligi-bolgan-shaxslarga-teng-imkoniyatlar-yaratish-boyicha-ishlar-jadallashtirilishi-lozim-2>
6. <https://www.samdu.uz/uz/news/17499>